



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 1-iyul

VII-9-64-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-sonli qarori ijrosi yuzasidan 2024-yil yakuni va 2025-yilning o‘tgan davrida mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoniga asosan 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha tuman va Farg‘ona tumanlarda «Mahalla byudjeti» tizimi amaliyotga joriy etildi.

Bunda har bir mahalladagi Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasiga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizi mablag‘lar yo‘naltirildi.

Tahlillarga kelsak joriy yilning **6 oyi** mobaynida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i **bo‘yicha undirilgan mablag‘larning 10 foizi jami 1.163.410.000** (Bir milliard bir yuzi oltmish uch million to‘rt yuzi o‘n ming) **so‘m tushgan bo‘lib**, o‘tgan yilgi qoldiq **1.666.474.845** (bir milliard olti yuzi oltmish olti million to‘rt yuzi yetmish to‘rt ming sakkiz yuzi qirq besh) **so‘m tushum bo‘lib, jami 2.829.884.845** (ikki milliard sakkiz yuzi yigirma to‘qqiz million sakkiz yuzi sakson to‘rt ming sakkiz yuzi qirq besh) **so‘m mablag‘ tushirildi.**

Shu kunga qadar **894.204.501.1** (sakkiz yuzi to‘qson to‘rt million ikki yuzi to‘rt ming besh yuzi bir so‘m 10 tiyin) mablag‘ sarflandi.

Bundan 2025-yilning olti oyi davomida:

1 ta “Pastki Archa” MFYda 50 metr qiymati 9.998.000 (to‘qqiz million to‘qqiz yuzi to‘qson sakkiz ming) so‘mlik ichki yo‘llar ta‘mirlangan;

11 ta mahalla fuqarolari yig‘inlarida: Tinchlik, Marg‘ilon, Yambaroq, Mehnatobod, Guliston, Mindonobod, Yuqori Archa, Bahor, Qurilish, Zilol, Oqbilol MFY larda jami 337 ta 66.464.970 (oltmish olti million to‘rt yuzi oltmish to‘rt ming to‘qqiz yuzi yetmish) so‘mlik tungi yoritish chiroqlari almashtirildi;

2 ta Xosilot va Dilkusho MFYlarga 50 dona 11.949.950 (o‘n bir million to‘qqiz yuzi qirq to‘qqiz ming to‘qqiz yuzi ellik) so‘mga quyosh batareyali chiroqlar qo‘yildi;

13 ta MFY Xosilot, Tinchlik, Beruniy, Marg‘ilon, Dilkusho, Yoyilma, Log‘on, Qo‘riq, Chimyon, Bahor, Shifokor, Guzar, Yangi obod mfylarga - 13 dona 68.020.055 (Oltmish sakkiz million yigirma ming ellik besh) so‘mlik kompyuter olib berildi;

19 ta MFY Xosilot, Beruniy, Marg'ilon, Qora yantoq, Log'on, Birdamlik, Mozor tagi, Yuqori Archa, Chimyon, Bahor, Ulug'bek, Zilol, Shifokor, Xo'roba, Sharq haqiqati, Farg'ona, Maydon, Yangi yo'l MFY larga 19 dona 32.361.996 (o'ttiz ikki million uch yuzi oltmish bir ming to'qqiz yuzi to'qson olti ming) so'mlik printer olib berildi;

10 ta MFYga Mozor tagi - 3 ta, Oq tepa, Chimyon, Boy mahalla, Yuqori Gulshan, Yangiobod lar -1 ta , Bahor - 2 ta, **10 dona** qiymati 44.141.000(qirq to'rt million bir yuzi qirq bir ming) so'mlik konditsioner olib berildi;

3 ta MFYga Kaptarxona - 3 dona, Mehnatobod - 5 dona, Satkak - 2 dona jami 10 dona qiymati 13.399.840 (o'n uch million uch to'qson to'qqiz ming sakkiz yuzi qirq so'm)lik stol;

9 ta MFYga Xosilot - 10, Yoyilma - 10, Mehnatobod - 15, Barqaror hamjixatlik - 30, Yu.Vodil - 30, Chimyon - 10, Yu.Gulshan - 20, Sharq haqiqati - 6, Satkak - 30donadan qiymati 33.975.000 (o'ttiz uch million to'qqiz yuzi yetmish besh ming) so'mlik stul;

25 ta MFY Mehnatobod, Barqaror hamjixatlik, Yu.Vodil, Obod, O'rta qishloq, Gulshan - 2 ta, Langar, Satkak - 3 ta, Shifokor - 5 ta, Qo'rg'on tepa - 4 ta, jami 25 dona qiymati 35.621.648 (o'ttiz besh million olti yuzi yigirma bir ming, olti yuzi qirq sakkiz) so'mlik kreslo;

13 ta MFYlarga Beruniy, Dilkusho, Shoximardonobod, Kaptarxona, Yoyilma, Damko'l, Oqtom, Mindonobod, Boy mahalla, Xonqiz, O'zbekiston, Farg'ona, Oqbilol MFYlarga jami 13 dona 285.063.000 (ikki yuzi sakson besh million oltmish uch ming ) so'mlik quyosh paneli o'rnatildi;

Yashil makon doirasida 32 ta MFY X.A.Vale - 80 dona, Bo'ston - 80, Novkent - 128, Toshqo'rg'oni Aziz - 100, Damko'l - 100, Oqtom - 200, Yu.Vodil -30, Navro'z - 50, Obod - 100, Qorayantoq - 50, Gulpiyon - 70, Xurshidi tobon - 70, Mash'al - 100, Birdamlik - 50, Mozor tagi - 72, Qorasuv - 50, O'rta qishloq -120, Oq tepa - 305, Yu.Archa -100, Bahor - 50, Langar - 50, Zilol - 120, Shifokor - 83, Gulshan - 100, Dexqonobod - 50, Yu.Gulshan - 50, Mindon - 50, Xo'roba - 50, Oq oltin - 35, Maydon - 60, Yangi yo'l - 83, Satkak - 75, jami 2711 dona qiymati - 40.061.560 so'mlik ko'chat olindi;

22 ta MFYlarga X.A.Vale - 3 ta, Sanoat- 2 ta, Beruniy - 4 ta, Toshqo'rg'oni Aziz - 9 ta, Shoximardonobod -1 ta, Oqtom - 4 ta, Navro'z - 4ta, Mash'al - 8ta, Birdamlik - 2 ta, Mozor tagi - 3 ta, Qorasuv - 4ta, O'rta qishloq - 6 ta, Oq tepa - 4 ta, Chimyon - 4 ta, Shifokor - 4ta, Xonqiz - 4ta, Oq oltin - 6ta, O'zbekiston - 5ta, Farg'ona - 4ta, Satkak - 8ta, Oqbilol - 5ta, Yangiobod -4 ta, jami 98 ta 144.836.482 (bir yuzi qirq to'rt million sakkiz yuzi o'ttiz olti ming to'rt yuzi sakson ikki ming) so'mlik kameralar o'rnatildi;

12 ta MFY Shoximardon, Yordon, Yambaroq, Navro'z, Obod, Vaziyo, Gulpiyon, Birdamlik, Qo'riq, Shifokor, Dexqonobod, Guzar MFYlarga 12 dona\_jami 18.487.000 (o'n sakkiz million to'rt yuzi sakson yetti ming) so'mlik stendlar uchun sarflandi;

73 ta MFYlarni har biriga 72.635.000 (Yetmish ikki million olti yuzi o'ttiz besh ming) so'mlik bir komplektdan kitob jamlanmasi olindi;

11 ta MFYlar Xosilot, Shoximardonobod, Kaptarxona, Yoyilma, Mehnatobod, Oqtom, Do'stlik, Gulshan, Guzar, Oqbilol, Yangiobod MFYlarga 1.300.000 (Bir million uch yuz ming) so'mlik konstovar mahsulotlari olib berildi;

5 ta mahallaga Kaptarxona, Mehnatobod - 70 metr, Yoyilma - 50 metr, Dexqonobod - 40 metr, Oqbilol - 31 metr - jami 261 metr 10.609.000 (o'n million olti yuzi to'qqiz ming) so'mlik kovralin olib berildi.

**Hozirgi kunga qoldiq 1.935.680.343.87** (Bir milliard to‘qqiz yuzi o‘ttiz besh million olti yuzi sakson ming uch yuzi qirq uch so‘m 87 tiyin).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-sonli qarori ijrosi yuzasidan O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona tuman bo‘limi boshlig‘ining hisobotini Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritilganligini, shuningdek, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

## **QAROR QILADI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-sonli qarori ijrosi yuzasidan 2024-yil yakuni va 2025-yilning o‘tgan davrida mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Farg‘ona tuman bo‘limi boshlig‘i D.Xomidovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona tuman bo‘limi (D.Xomidov), “Mahalla yettiligi” rahbarlari va Farg‘ona tuman hokimligi bilan birgalikda:

- mahallada sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar va an‘analarni targ‘ib qilish, ma‘naviy-ma‘rifiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- jamg‘arma mablag‘laridan mahalla fuqarolar yig‘ini kengashi qarori asosida to‘g‘ri va samarali, joy-joyiga ishlatish aholi muammolariga nisbatan e‘tiborsizlik bilan munosabatda bo‘lish holatlariga chek qo‘yish, mahallalarda aholi muammolarini o‘rganish va aniqlangan har bir masalani chuqur o‘rganib, barcha imkoniyatlardan foydalangan holda ijobiy hal etish choralar ko‘rish;

- mahallalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar va xotin-qizlarning har tomonlama himoya qilish ularni ish bilan ta‘minlash;

- tadbirkorlarga yaqindan ko‘maklashish, mahalladagi yolg‘iz keksalar va ayollar, nogironligi bo‘lgan va ehtiyojmand aholi bilan manzilli ishlashda mahallalarning soliq inspektorlari va ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg‘ona tuman bo‘limi ijtimoiy xodimlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib borish;

- hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning o‘z vazifalarini belgilashda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- mahallada aholini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va boshqa mablag‘lari va boshqa mablag‘larni maqsadli va manzilli yo‘naltirish;

- qonunchilikka muvofiq Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasiga jalb etilgan mablag‘lar va homiylik hayriyalaridan maqsadli foydalanish;

- mahallada tegishli qarorlar bajarilishi, hal etilmagan muammolar sabablari hamda aholi yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- mahallaning xalq bilan davlat o‘rtasidagi “ko‘prik” vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishiga ko‘maklashish;

- mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomiga muvofiq ishlarni tashkil etish;

- fuqarolarni o'z uyi va ko'chasini ozoda saqlashga, milliy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilishga chaqirish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarda mahallaning o'rnini kuchaytirish, aholi o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralari ko'rish;

- har bir fuqaro o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta'minlashda mas'uliyatni sezishi, boqimandalikka o'rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish choralari ko'rilsin.

**3. Xalq deputatlari tumani Kengashi deputatlariga:**

- mahallalar uyushmasi tuman bo'limining mahalla jamg'armasi mablag'laridan foydalanish holati bo'yicha har chorakda hisobotini eshitish (PQ-402-sonli Farmon);

- Xalq deputatlari tumani Kengashi deputatlari va "Mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish tavsiya etilsin.

**4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiya (M.Yo'ldashev) zimmasiga yuklatilsin.**

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH